


IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)


2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **69,8 %** ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida **3 935** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 1 408 ta, sanoat tarmog'ida 679 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 487 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 330 ta, axborot va aloqada 234 ta, qurilish sohasida 180 tani tashkil etilgan.

Korxonalar soni kesimida



2024-yilning yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 69,8 foizi (2023-yil yanvar-iyunda 69,6 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 9 087,1 mlrd. soʻmni (sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmining 48,8 foizi va faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 5 175 tani tashkil etdi);



17 303,9 mlrd. soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulotlari (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari umumiy hajmining 94,6 foizi) faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 210 tani tashkil etdi;



6 885,1 mlrd. soʻmlik investitsiyalar oʻzlashtirilib (umumiy investitsiyalar hajmining 45,1 foizini tashkil etdi);



4 312,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 84,8 foizi) (qurilish sohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 187 tani tashkil etdi);



avtomobil transporti yuk aylanmasining hajmi 708,6 mln. tonna km. tashkil qilib 85,9 foizi, umumiy yoʻlovchi aylanmasi 7 447,1mln. yoʻlovchi km. tashkil qilib 97,0 foizi kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga toʻgʻri kelmoqda (faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 927 tani tashkil etmoqda)




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 85,2 foizi yoki 11 839,5 mlrd. soʻm, xizmatlar umumiy hajmining 64,3 foizi yoki 10 305,0 mlrd. soʻmni tashkil qildi. Savdo ohasida faoliyat koʻrsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 15 181 ta.




141,5 mln. AQSh dollari miqdorida eksport va (eksport hajmining 38,5 foizi) 377,8 mln. AQSh dollari miqdorida import (import hajmining 35,8 foizi) operatsiyalari amalga oshirildi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17 303,9	94,6
Sanoat	9 087,1	48,8
Qurilish	4 312,2	84,8
Chakana savdo	11 839,5	85,2
Yuk tashish, mln tn.	26,7	88,7
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	215,7	94,0
Eksport, mln. AQSh doll.	141,5	38,5
Import, mln. AQSh doll.	377,8	35,8

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2024-yilning 1-iyul holatiga 56 133 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (54 415 ta) 103,2 foizni tashkil etdi.





Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar ro'yxatidan o'tganlarning ulushida savdo (40,7 %), sanoat (16,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,5 %), qurilish (7,0 %), tashish va saqlash (2,6 %), axborot va aloqa (2,0 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,9 %) sohalariga to'g'ri kelmoqda.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2019-2024-yillar yanvar-iyun oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati





2024-yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi

Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (2 209,6 mlrd. so'm), Urgut (1 197,6 mlrd. so'm), Jomboy (874,0 mlrd. so'm), Samarqand (892,2 mlrd. so'm), Toyloq (624,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Paxtachi (83,0 mlrd. so'm) va Qo'shrabot tumanlarida (88,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




■ hajm, mlrd. so'm

2019-2024-yillar yanvar-iyun oylariga kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




2024-yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari




Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Samarqand shahri (3 433,1 mlrd. so'm), Urgut (1 334,5 mlrd. so'm) va Samarqand (1 090,9 mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2019-2024-yillar yanvar-iyun oylariga kichik tadbirkorlik subyektlari da xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



2024-yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Qo'shrabot tumani (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (83,2 %), Oqdaryo (84,5 %), Narpay (82,6 %), Kattaqo'rg'on (82,6 %) va Jomboy (80,9 %) tumanlariga to'g'ri kelgan bo'lsa eng past ko'rsatkich Samarqand shahriga (51,1 %) to'g'ri keladi.